

NATIONAL GEOGRAPHIC MATERIALI

O'zbekiston ichra

National Geographic'ning Ipak yo'li bo'ylab sayohati

National Geographic muxbiri Gari Shteyngart O'zbekiston bo'ylab sayohat qilib, Toshkent, Samarqand, Buxoro hamda Xivani ziyorat qildi. U o'zining Ipak yo'li bo'ylab qilgan safarini mamlakat tarixi, madaniyati va o'zgarishlariga bag'ishlangan materialga aylantirdi.

Uning taassurotlari bilan tanishish uchun varaqlang →



Uzbekistan

NATIONAL
GEOGRAPHIC

O'SISH

O'ZBEKISTONDA TURISTIK BUM

O'zbekiston dunyoning eng jadal rivojlanayotgan turistik iqtisodiyotlaridan biridir. O'tgan yili mamlakatga qariyb 12 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, o'n yil avval bu ko'rsatkich ikki millionga ham yetmas edi.



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC


BELDERSOY
RESORT & SPA

O'ZGARISHLAR

TURIZMNING YANGI DAVRI

O'zbekiston turizm sohasida keng ko'lamli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda: mamlakat bo'ylab yangi mehmonxonalar, ko'ngilochar ob'ektlar va yirik turistik loyihalar barpo etilmoqda.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

IPAK YO'LI

IPAK YO'LI QAYTMOQDA

O'zbekiston Ipak yo'lini o'zining asosiy turistik brendiga aylantirgan holda turizmni faol rivojlantirmoqda.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

TOSHKENT

TOSHKENT: O'ZBEKISTONNING YANGI QIYOFASI

Toshkent jadal qurilish va yangilanish davrini boshdan kechirmoqda: poytaxtda yangi ko'p qavatli binolar, mehmonxonalar va ko'ngilochar maskanlar barpo etilmoqda.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC

TRANSPORT

IPAK YO'LI QAYTA TIKLANDI

Bugungi kunda tezyurar poyezdlar Toshkentni Samarqand, Buxoro va Xiva bilan bog'lab, bir shahardan ikkinchisiga atigi bir necha soatda yetib olish imkonini bermoqda.



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

SAMARQAND

SAMARQAND: IPAK YO'LINING YURAGI

Samarqandni bejiz “Sharq durdonasi” deb atashmaydi. Bir vaqtlar u islom olamining intellektual markazlaridan biri bo'lgan bo'lsa, shaharda bugungi kunda ham qadimiy masjidlar va madrasalar saqlanib qolgan.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC


Uzbekistan

 NATIONAL
GEOGRAPHIC



BUXORO

BUXORO: QADIMIY SAVDO MARKAZI

Buxoro eski shahar ko'chalari va tor yo'laklari bilan ajralib turadigan, birmuncha sokin savdo markazi va jo'shqin ijodiy muhitiga ega shahar sifatida ta'riflanadi.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

XIVA

XIVA: JONLI IPAK YO'LI

Xiva UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, devorlar bilan o'ralgan Ichan qal'asi tufayli "tirik muzey" sifatida tan olingan.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

TOSHKENT

IPAK YO'LI RUHI BARHAYOT

Taxminan 2000 yillik tarixga ega Toshkentdagi Chorsu bozorida hanuzgacha bir vaqtlar Ipak yo'li bo'ylab savdo qilingan ipak va ziravorlarni topish mumkin.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC

RIVOJLANISH

O'ZBEKISTONDA TURIZM TRANSFORMATSIYASI

O'zbekiston bo'ylab Ipak yo'li mavzusidan ilhomlangan mehmonxonalar, restoranlar va akvaparklarni o'z ichiga olgan yirik turizm loyihalari amalga oshirilmoqda.



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

SAMARQAND

YANGI IPAK YO'LI MUZEYI

Joriy yilning bahorida O'zbekiston hukumati Go'ri Amir maqbarasi yaqinida yangi Ipak yo'li muzeyini tashkil etish rejalarini ma'lum qildi. Muzeyda arxeologik topilmalar, an'anaviy hunarmandchilik namunalari va boshqa eksponatlar namoyish etiladi. Majmua 22 akr (8,9 gektar) maydonni egallaydi. Bu hudud maydoni jihatidan taxminan Nyu-Yorkdagi Amerika tabiat tarixi muzeyi hududiga teng bo'ladi.

SAMARQAND

SILK ROAD SAMARKAND

Silk Road Samarkand — 4 yil avval foydalanishga topshirilgan, qiymati 580 million dollar bo'lgan yirik turizm majmuasi bo'lib, uning tarkibiga mehmonxonalar va "Boqiy shahar" majmuasi kiradi. "Boqiy shahar" — Temuriylar davri me'morchiligidan ilhomlangan, restoranlar, butiklar va tomosha maydonlarini o'zida mujassam etgan Ipak yo'lidagi voha-shahar ko'rinishidagi turistik maskandir.

MULOHAZA

YANADA QULAYLASHDI, BIROQ O'Z JOZIBASINI YO'QOTMADI

“Bugun ular deyarli mukammal muvozanatni saqlamoqda: yanada ommalashgan bo'lsa-da, hamon o'z maftunkorligini saqlab qolmoqda”.



Uzbekistan



NATIONAL
GEOGRAPHIC

MULOHAZA

O'ZBEKISTON HANUZGACHA MAFTUNKOR

“O‘zbekistonning Ipak yo‘li shaharlari o‘zining gullab-yashnagan davridan keyin ham uzoq vaqt o‘z go‘zalligini yanada oshirishi mumkinligini isbotlaydi”.

MANBA · NATIONAL GEOGRAPHIC